

**UO'K: 8.81-139**

**INGLIZ TILIDA QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA OID  
TERMINLARNING TUZILISHI VA TASNIFI**

**Usmonova Shoiraxon Ro'ziyevna**

*Tillarni o'qitish kafedrasida o'qituvchisi,*

*Qo'qon universiteti Andijon filiali*

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz tilidagi qishloq xo'jaligiga oid terminlarning tasnifi keltirilgan. Agronomiya sohasida qo'llanilayotgan har bir so'z sohaga xizmat qiluvchi terminologiya tizimining elementiga aylanadi va ushbu faoliyat yo'nalishiga qarab, yagona terminologik tizimga birlashuvchi terminologik tizimlar majmuasini hosil qiladi.

**Kalit so'zlar:** affikslar, qishloq xo'jaligi, leksik birliklar, terminologik birikma, atamalar, leksik xususiyatlar.

**STRUCTURE AND CLASSIFICATION OF AGRICULTURAL  
TERMS IN ENGLISH LANGUAGE**

**Usmonova Shoiraxon Ruziyevna**

*Lecturer of department of teaching languages,*

*Andijan branch of Kokand University*

**Abstract.** The article presents a classification of agricultural terms in English. Each word used in the field of agronomy becomes an element of the terminology system serving the field and, depending on the direction of this activity, forms a complex of terminological systems that are combined into a single terminological system.

**Key words:** affixes, agriculture, lexical units, terminological combination, terms, lexical features.

**СТРУКТУРА И КЛАССИФИКАЦИЯ  
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ  
ЯЗЫКЕ**

**Усманова Шоираксон Рузиевна**

*Преподаватель кафедры преподавания языков,*

*Андижанский филиал Кокандского университета*

**Аннотация.** В статье представлена классификация сельскохозяйственных терминов в английском языке. Каждое слово,

используемое в области агрономии, становится элементом терминологической системы, обслуживающей эту область, и в зависимости от сферы деятельности образует комплекс терминологических систем, которые объединяются в единую терминологическую систему.

**Ключевые слова:** аффиксы, сельское хозяйство, лексические единицы, терминологическое сочетание, термины, лексические признаки.

Qishloq xo'jaligi maxsulotlari terminologiyasi hali shakllanish bosqichida bo'lib, yangi terminologiyani o'rganish bilan bog'liq tegishli lingvistik tadqiqotlarni amalga oshiradi; chunki ular atamashunoslik jarayonlarining mohiyatini ochib berish va maxsus lug'atning shakllanish qonuniyatlarini ko'rsatish imkonini beradi. Biotexnologiya sohasidagi atamalar mazmunini chuqurroq tushunish uchun ularni tasniflash shaklida tizimlashtirish zarur.

Ko'pgina olimlarning asarlari "termin" tushunchasini va terminologik tizimini turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy tilshunoslikda "termin" atamasi "fan, texnika, san'at, ijtimoiy-siyosiy hayot va hokazolar sohasida aniq belgilangan tushunchani ifodalovchi so'z yoki ibora" sifatida talqin qilinadi [2].

B.Golovin atamaga "maxsus ma'noga ega bo'lgan, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi hamda ilmiy va kasbiy ob'ektlarni va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan so'z yoki ibora" deb ta'rif beradi [3].

E. Skorohodko kasbiy tizim tushunchasini ifodalovchi shunday leksik-semantik tizimning bir qismi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi deb tushunadi. Bu talqin atamalar siklidan umumiy ilmiy leksik birliklarni chiqarib tashlaydi [4].

Qishloq xo'jaligi terminologiyasi o'zaro bog'liq sohalar atamalari bilan keng va tarmoqlangan semantik aloqaga ega bo'lganligi sababli, atamalarning kattaroq guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin, jumladan, umumiy (umumiy ilmiy), asosiy - biologiya, genetika, kimyo va ekologiya sohalari, asl (sof) (tor ixtisosliklar) atamalar kabi.

Umumiy ilmiy atamalar guruhiga umumiy ilmiy atamalar kiradi: adaptation (adaptatsiya, moslashish), genetics (genetika), analysis (tahlil), bacteria (bakteria).

Turdosh sohalar uchun umumiy bo'lgan asosiy atamalarga biologik, shu jumladan botanika va zoologik atamalar kiradi: adaptation -adaptatsiya, moslashuv, organizmning evolyutsiya jarayonida vujudga kelgan tashqi muhitdagi yangi yashash sharoitlariga moslashishi; anabiosis-anabioz, organizmning hayot jarayonlari (moddalar almashinuvi va b.) juda sekinlashgan, ya'ni uning tirikligi sezilmaydigan darajaga o'tgan holati; asexual - aseksual, jinssiz, gametalarning meyozsiz yoki birlashishsiz sodir bo'lgan ko'payish yo'li; nutrition-oziquanish, organizmlar va hujayralar yashashi uchun zarur bo'lgan materiallar bilan ta'minlash; selection-selektsiya, populyatsiya a'zolari o'rtasida ko'payishga olib keladigan har qanday tabiiy yoki sun'iy jarayon, bunda faqat ma'lum individlarning irsiy xususiyatlari o'tadi.

Tahlil qilinayotgan terminologik tizimda terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. boshqa terminologik tizimlardan o'zlashtirilgan va asl ma'nosini saqlab qolgan asosiy atamalar: carbon-uglerod, cell-hujayra;
2. yasama va qo'shma atamalar (so'z birikmalari): plant breeding, animal breeding.

Ingliz va o'zbek tillarda qishloq xo'jalik sohasiga oid birliklarni turli usullarda hosil qilish mumkin:

- suffiksatsiya va affiksatsiya;
- prefiksatsiya;
- parasintetik;
- pintaktik va abreviaturalar.

O.Axmedov tildagi affiks va qo'shimchalar haqida quyidagi fikrni bildirgan: "...affikslar orqali so'zlar yasaladi, qo'shimchalar orqali grammatik shakllar hosil qilinadi..

Suffiksatsiya usuli - asosan, termin asosini o'zak va yasovchi qo'shimchalar tashkil qiladi.

Terminlarning kelib chiqishini aniqlashdagi qiziqish, avvalambor, ularning affiksial tarkibini ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan. Ko'p hollarda ularning yunon, lotin, fransuz va Yevropaning boshqa tillaridan o'zlashtirilganligiga guvoh bo'lamiz. Asosan, ingliz tilida quyidagilar: -er (farmer), -ing (precooling, subsoiling).

Qishloq xo'jaligi sohasiga oid terminlar yasashda lotin, fransuz, yunon va boshqa tillardan o'zlashtirilgan suffikslarni ham uchratishimiz mumkin. So'z turkumlari bo'yicha alohida ajratilgan lotin suffikslariga quyida misollar keltiramiz. Demak, ot yasovchi qo'shimchalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: -ion (pollination) va sifat yasovchi qo'shimchalarga esa: -ate (concentrate), -ent (nutrient).

Ingliz tilidagi yunoncha sifat yasovchi suffikslarga quyidagilar kiradi: -ic, (ethnic), -ical (biological).

Prefikslar ham sohaga oid terminlarni hosil qilishda juda muhim hisoblanadi: mis-, un-, be-, out-, up-, under-, over-, with-tub prefikslardir. dis-, de-, in, il-, ir-, non-, cor-, re- kabilar esa lotin va fransuz tilidan o'zlashtirilgan prefikslar hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, roman tillarining quyidagi prefikslari va yarim prefikslariga xos: pre-, re-, sub-, ultra-, ushbu prefikslar terminlarni yasashda juda faoldir.

Hozirda o'zbek tilida qishloq xo'jaligi sohasiga oid atamalarni yasashda -lash affiksi faoldir. Ularning muhim jihati shundaki, ular o'zlashma terminlar singari tizimga singib ketgan. Masalan: payvandlash, oziqlantirish va h.k.

Ingliz tilidagi -tion, -ing, -ion affikslarning o'zbek tilidagi vaziyatga oid holatni ifodalovchi -sh (-ish), -ash affikslari faolligini guvohi bo'ldik.

Zamonaviy ilm-fan tobora ko'proq mavjud atamalarni konkretlashtirishga intilmoqda, shuning uchun agronomiyayaga oid ilmiy va texnik matnlarda ob'ektlarni batafsil va aniq shaklda ifodalashga imkon beradigan ko'p komponentli atamalarning nisbatan sezilarli ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'tkazilgan tahlil va tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz tili qishloq xo'jaligi terminologiyasi ilmiy, ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi ilmiy bilimlarning umumiy atamalari, kasbiy faoliyat metodlari, funktsiyalari va ob'ektlarini bildiruvchi asosiy atamalar va sohaning o'zigagina xos bo'lgan tushunchalarni ifodalaydigan o'z atamalaridan tashkil topgan ochiq tizimdir. Bu terminologik tizimda ilmiy tushunchalar va jarayonlarning nomlarini ifodalovchi ko'p komponentli atamalar yetakchi o'rinni egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Abdullayeva, N. (2021). Thematic classification of names of fruit trees in the aspect of intercultural communication (on the material of the Uzbek, Tajik and English languages).
2. Adambaeva F.R. About the Definition of the Concept "Term" // "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi respublika 35-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferentsiya materiallari to'plami. -Toshkent: «Tadqiqot», 2021. -B 168-169.
3. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах: Учеб. пособие для филол. спец. вузов. М.: Высш. Шк.1987. -105 с.
4. Skorokhod'ko, E.F. Termin u naukovomu teksti. K. Lohos. 2006.
5. Adambaeva F.R. The necessity of learning terms of biotechnology sphere // Тези доповщей. XIV мѣждународног конференц/з «Іноземна фшология у XXI столѣттіѣ». -Запоріжжя, 2022. -С.5-7.
6. Qishloq xo'jaligiga oid atamalarning izohli lug'ati- Toshkent: "O'zbekiston", 2023 - B, 556.
7. Syrotin A. Multi-Component English Terms of Biotechnology Sphere // Cogito: Multidisciplinary Res. J., 2017. 9.